

SOG‘LOM FARZAND TARBIYASI -OILADA GENDER MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING ASOSIDIR



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-511-514>

Beknazarova Lola Sadinovna

Qarshi Davlat Universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya kafedrası professori, psixologiya fanlari doktori (DSc).

Annotatsiya. Maqolada, o‘zbek millatiga xos etnopsixologik xususiyatlar qadimdan oilada gender tenglik tamoyilini singdirishda kattalar, xususan, bolaning ota-onasida genderga oid to‘g‘ri, sog‘lom munosabatlar, qadriyatlar tizimi sifatida shakllanib kelganligining milliy psixologik jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, oilaviy munosabatlar, millat, etnopsixologiya xususiyat, gender, tenglik, tamoyil, ota-ona, munosabat, qadriyat, sog‘lom nasl, qadriyat

Аннотация. В статье рассматриваются национально-психологические аспекты, отражающие то, что этнопсихологические особенности, присущие узбекскому народу, с древних времён способствовали формированию и усвоению в семье принципа гендерного равенства. В частности, подчёркивается, что у взрослых, прежде всего у родителей ребёнка, как система ценностей последовательно формировались правильные и здоровые гендерные установки и отношения.

Ключевые слова: семья, воспитание, семейные отношения, нация, этнопсихологические особенности, гендер, равенство, принцип, родители, отношения, ценности, здоровое поколение.

Annotation. The article examines the national psychological aspects through which the ethnopsychological characteristics inherent to the Uzbek people have, since ancient times, contributed to the internalization of the principle of gender equality within the family. In particular, it emphasizes that correct and healthy gender-related attitudes and value systems have been systematically formed among adults, especially parents, serving as a fundamental basis for instilling gender equality in child upbringing.

Key words: family, upbringing, family relations, nation, ethnopsychology, characteristics, gender, equality, principle, parents, relationships, values, healthy generation.

KIRISH

Oilada bolalarni tarbiyalash masalasi murakkab va ko‘p qirrali. Ota-onalarning chuqur bilimi, ziyrak va oqil bo‘lishi talab qilinadi. Zero, har bir bola uchun o‘ziga yarasha tarbiya usullarini topish lozim bo‘ladi. Bola hayotining birinchi kunlaridanoq to‘g‘ri tarbiya qilinsa odam shaxs sifatida to‘g‘ri rivoj topadi va shakllanadi, u rostgo‘y va halol mehnatsevar, jamoani hurmat qiladigan, jamiki go‘zallikka intiladigan bo‘lib yetishadi. Oilaviy ta’sir, ya’ni oiladagi turmush tarzi ota-ona nufuzi, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar, ona tili muhiti, ma’naviyatga intilish, qiziqish va boshqalarda o‘z-o‘zini anglash namoyon bo‘ladi. Barcha ma’naviy qadriyatlar oilada tarkib toptiriladi. Zero, oila etnik va etnopsixologik xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Oila-hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Oila va oilaviy munosabatlarni asrash ko'pni ko'rgan donishmand halqimizning azaliy qadriyatlaridan sanaladi. Jamiyatning muhim bo'g'ini kuchli va barqaror davlat negizi-oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri ekani bejis emas. Binobarin mamlakat hayotida yuz beradigan har qanday o'zgarishlar, islohatlar ta'siri va ifodasi oilada namoyon bo'ladi. Yurtdagi osoyishtalik, hamjihatlik ham oilalardagi totuvlik, farovonlik bilan bog'liq. Ayniqsa, jismoniy va ma'naviy sog'lom, zamonaviy dunyoqarash va intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashdek strategik maqsadga bu institutni rivojlantirmay turib erishish mushkul. O'z ertasi, taqdiri haqida qayg'uradigan davlat va jamiyat borki, oilalarni muhofaza qilishga, bu borada tashkiliy-huquqiy, institutsional asoslarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratadi.

Fuqarolarimizda oila oldidagi burch va mas'uliyatni chukur anglab, ularni ado etishga harakat qilish ko'nikmasini yanada oshirish, yoshlar ongu shuuriga oilani muqaddas deb bilish tushunchalarini chuqur singdirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada mohiyatan boyitishga harakat qilishimiz lozim. Zero, oilalar mustahkam bo'lsa, bolalar baxtiyor, jamiyat barqaror, xayotimiz yanada farovon bo'ladi.

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Zero oila farovonligi-milliy farovonlik asosidir.

Agar inson to'g'ri tarbiya topmasa, uning faoliyati jamiyatga katta zarar keltiradi. Buyuk mutafakkir Bedil ta'kidlaganidek, agar me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo'lib kelaveradi. Bu fikrdan ko'rinib turibdiki, jamiyat ijtimoiy hayotidagi barcha muammolar yechimi ma'naviy ahloqiy jihatdan yetuk kishilarning fidokorona halol mehnati, hamkorligi, iymon e'tiqodi asosida ro'yobga chiqadi. Sog'lom barkamol inson har bir xalq, millat, davlat kelajagini nurli istiqbolidir. Binobarin, barkamol, ma'naviy boy, axloqan pok va jismonan sog'lom kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish ilk bor oilada amalga oshiriladi. Kishiga bir umr hamroh bo'ladigan insoniy fazilatlar ezgulik, yaxshilik, yaratuvchanlik, fidoyilik, sadoqat, mardlik insof, rahm shavqat kabi xislatlar dastlab oilada shakllanadi.

Oila yoshlarni ahloqi, odobli, rostgo'y, mehnatsevar, halol va samimiy bo'lib voyaga yetishlari uchun zamin tayyorlaydi. Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishida katta rol o'ynaydi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroni xarakteri, dunyoqarashi va ahloq qiyofasi shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi. Tarbiyaning mazmuni, yo'nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog'liq. Shu munosabatlarga muvofiq kishi hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo'ladi,

tafakkuri orqali olamni anglaydi va unga o'zining munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruhida tarbiya topadi. Chunki oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi ma'naviy-ruhiy muhit bola tarbiyasi uchun g'oyat muximdir. Oila a'zolarining turmush tarzi ko'p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va hissiyotlarni belgilab beradi. Demak, oila sog'lom barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda jamiyat oldida mas'uldir. Oilada tarbiya topgan har bir inson har jihatdan umuminsoniy ahloqiy ilmi, e'tiqodi va boshqa sohalarga yuksak kamolotga yetgan xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o'zligini taniy boshlaydi. Komillik bu insoning adolatli bo'lishi, haqiqat va yaxshilikni intiluvchi, vijdonan pok, o'z gunohlarini anglab, ulardan xalos bo'lishga harakat qilish demakdir.

Oila qaysi millat bilan bog'liq bo'lsa shu millatga tegishli bo'lgan etnopsixologik tomonlarni o'ziga mujassamlashtiradi. Oilaga tegishli bo'lgan shu millat urf-odatlarini, udumlarini, an'analarini bajaradi va o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda mana shu milliy tomonlardan foydalanadi. Milliy urf-odatlar, an'analar orqali esa shu millatga tegishli bo'lgan etnopsixologik tomonlar tarkib topadi va rivojlantiradi. Shunga ko'ra o'zbek oilasini dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomonlari bilan birga, uning o'ziga xos jihatlari ham mavjud. O'zbek halqining hayotida mavjud bo'lgan tartib va qoidalar halq an'analari hamda islom dini va shariat asosida yuzaga kelgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra aytish joizki, o'zbek millatiga xos etnopsixologik xususiyatlar qadimdan oilada gender tenglik tamoyilini singdirishda kattalar, xususan, bolaning ota-onasida genderga oid to'g'ri, sog'lom munosabatlar, qadriyatlar tizimi sifatida shakllanib kelgan. Har bir ota-ona bolaning jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishishida o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish, tabiiy mahsulotlar bilan ovqatlantirish, kelajakda sog'lom nasl qoldirishni oiladagi eng asosiy tarbiya sifatida qabul qilishgan. Bu esa farzandlarga gender bilan bog'liq to'g'ri qarashlarni singdirib borganligidan dalolat beradi. Chunki bola tarbiyasida axloqiy-ma'naviy tarbiyaning zamirida ularning sog'lom fikrlashi uchun jismonan sog'lom bo'lishi ko'zda tutilgan. O'g'il ham qiz kelajakda sog'lom farzandlar dunyoga keltirishi uchun bir xil shart-sharoitlar yaratish lozimligiga alohida e'tibor qaratishgan.

Shuning uchun bolaga yoshligidan gender tengligi tamoyilini singdirishda ularning ota-onalari ushbu tamoyilga amal qilib kelishgan. Masalaning bir tomoni sifatida e'tibor berib qaralganda oilada sog'lom nasl qoldirish milliy psixologik xususiyatlardan biri bo'lib gender tenglikka nisbatan munosabatlar shakllanib borganligini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha oilada gender tenglikka nisbatan munosabat bildirishda ota-ona har bir o'g'il-qizning dunyoga kelishi bilan sog'lom bo'lib voyaga yetishishi uchun to'g'ri oziqlantirish va shart-sharoitlarni bir xilligini ta'minlash birlamchi muhim manba hisoblanadi. Shundagina jismonan sog'lom inson shakllanib, gender va gender munosabatlarga nisbatan zamonaviy ijobiy

fikrlay oladi. Bularning hammasi oilaviy munosabatlarning qay holatda shakllanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib har bir inson u katta yoki kichik bo‘lmasin, oila bag‘rida yashashi eng ulug‘ fazilat, farzandparvarlik, serfarzandlik hisoblanadi. Qadimdan serfarzand ota-onani xalqimiz e‘zozlangan, ularning xonadonlari ham fayzli, ko‘rkam, nufuzli, namunali hisoblangan.

Oilada bola tarbiyasining milliy o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, gender munosabatlar va gender tarbiyaga xos masalalardan ota-onalar ulardan o‘rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma‘naviy ruhiy xotirjamlik, o‘zaro totuvlik hukmronlik qilsa, oila a‘zolarining bir-biriga g‘amxo‘rligi mavjud bo‘lsa, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta‘sir etadi va farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg‘a siljish bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘aybullayeva R. Oila va bola tarbiyasida zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: TDPU, 2022. – 146 b.
2. Bozorova N. Oilaviy psixologiyada ijtimoiy moslashuv. Toshkent: Ma‘naviyat, 2020. – 132 b.
3. Astanova Z. Ota-ona va farzand o‘rtasida ishonchni rivojlantirish. Toshkent: Ma‘naviyat, 2018. – 120 b.
4. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. T.,”O‘qituvchi”, 1994 y.